

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (6) – 2026*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА .....	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI .....	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА .....	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH .....	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ .....	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR .....	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI .....	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI .....	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI .....	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI .....	86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) .....	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI .....	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI .....	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI .....	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL .....	141-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR .....	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" .....	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" .....	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li*  
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:  
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB  
TALQINLARI..... 211-215

*Rustamova Madina*  
OMMAVIY MANIPULYATSIIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:  
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*  
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING  
TRANSFORMATSIIYASI..... 221-225

#### **10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI**

*Isanova Feruza Tulqinovna*  
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING  
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ..... 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*  
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING  
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL ..... 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*  
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*  
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

#### **12.00.00 - YURIDIK FANLAR**

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*  
QONUNIIY KUCHGA KIRMGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA  
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*  
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK  
UCHUN JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

*Аминова Наргиза*  
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:  
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО  
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ..... 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*  
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li*  
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:  
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*  
JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI .... 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH .....	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ .....	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI .....	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI .....	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH .....	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION .....	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI .....	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

**Received:** 16 March 2026

**Accepted:** 01 April 2026

**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

## **TRANSFORMATION OF SOCIAL RELATIONS IN THE INFORMATION SOCIETY**

**Yodgorov Alisher Nurmuhhammadovich**

Independent Researcher,

Institute of Social and Spiritual Research

**Abstract.** This article provides a philosophical analysis of the transformation of social relations in the context of the information society. The author examines the impact of digital reality on human consciousness, social hierarchy, and communication culture within the framework of the “network society” concept. The paper also explores the dialectical relationship between virtual and real interactions, as well as the issues of self-identification and personal identity.

**Keywords:** information society, network structure, digital ontology, social transformation, cyber philosophy, simulacrum, technological determinism, personal identification, consciousness, spiritual education, socialization.

## **AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI**

**Yodgorov Alisher Nurmuhhammadovich**

Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [a.yodgorov@gmail.com](mailto:a.yodgorov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning o’zgarishi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif raqamli reallikning inson ongi, ijtimoiy iyerarxiya va muloqot madaniyatiga ta’sirini “tarmoqli jamiyat” konsepsiyasi doirasida tadqiq etadi. Maqolada virtual va real munosabatlar o’rtasidagi dialektik aloqa, individning o’zligini anglash muammolari yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** axborotlashgan jamiyat, tarmoqli struktura, raqamli ontologiya, ijtimoiy transformatsiya, kiber-falsafa, simulyakr, texnologik determinizm, shaxs indentifikatsiyasi, ong, ma’naviy tarbiya, ijtimoiylashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N31>

**Kirish.** Zamonaviy davrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalariga chuqur kirib borib, ijtimoiy munosabatlar tizimining tubdan o’zgarishiga olib kelmoqda. Axborotlashgan jamiyat shakllanishi natijasida insonlar o’rtasidagi muloqot, ijtimoiy aloqalar, boshqaruv tizimi va madaniy qadriyatlar yangi mazmun va shakl kasb etmoqda. Shu bois, ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlar nafaqat an’anaviy shakllarda, balki raqamli makon orqali ham amalga oshirilmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va raqamli platformalar insonlar o’rtasidagi kommunikatsiyani tezlashtirib, ularning o’zaro aloqalarini global darajaga olib chiqmoqda. Natijada vaqt va makon chegaralari qisqarib, yangi ijtimoiy identiklik shakllari, virtual hamjamiyatlar va kommunikativ madaniyat yuzaga kelmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini chuqur o'rganish jamiyat rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash, inson omilining o'rnini baholash hamda samarali ijtimoiy siyosatni shakllantirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu transformatsiya inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning qayta talqin qilinishini anglatadi. Axborot oqimlarining ortishi, bilimning tez yangilanishi va raqamli muhitning kengayishi insonning ijtimoiy faolligi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllari bilan bir qatorda muayyan muammolar – axborot xavfsizligi, raqamli tengsizlik, ijtimoiy izolyatsiya va manipulyatsiya kabi masalalar ham yuzaga kelmoqda.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi ijtimoiy borliqning tubdan virtualizatsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Axborot endilikda nafaqat iqtisodiy resurs, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi fundamental substansiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Manuel Kastels ta'biri bilan aytganda, biz “oqimlar makoni” va “tizimli vaqt” hukmronlik qiladigan yangi ijtimoiy tuzilmaga qadam qo'ydik [1]. Darhaqiqat, bugungi kunda inson faqatgina texnologiya iste'molchisi emas, balki raqamli ekotizimning organik bo'lagiga aylanib ulgurdi. Agar ilgari ijtimoiy munosabatlar bevosita jismoniy makonda kechgan bo'lsa, hozirda bu jarayonlar giperreallik va simulyatsiyalar maydoniga ko'chdi. E. Yusupov ta'kidlaganidek, “ijtimoiy munosabatlarning texnologiyalashuvi insoniylik mezonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda” [2]. Mazkur jarayonda inson texnologiyadan foydalanuvchi emas, balki raqamli ekotizimning ajralmas komponentiga aylanmoqda. Bu esa ontologik jihatdan yangi borliq shakli — raqamli ontologiyani yuzaga keltiradi. Raqamli ontologiya sharoitida insonning mavjudligi ikki qatlamda — real va virtual borliqda kechadi. Bu ikki qatlam o'zaro dialektik bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Ammo bu jarayon inson ongida murakkab ziddiyatlarni ham yuzaga kelishi bilan xarakterlanib, inson o'zligini anglash, identivlikni saqlash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash muammolari dolzarb tus oladi. A. Erkaev “Zamonaviy jamiyatda axborot va bilimning roli ortib borishi inson tafakkurining yangilanishiga olib keladi” [3] deb ta'kidlaydi. Bu esa ma'naviy tarbiya tizimini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Bu transformatsiya natijasida ijtimoiy borliqning “atomar” tuzilishi “tarmoqli” tuzilishga o'rin bo'shatib bermoqda. Endilikda shaxsning ijtimoiy maqomi uning jismoniy joylashuvi bilan emas, balki global axborot oqimlaridagi ishtiroki va raqamli faolligi bilan o'lchanmoqda. Zero, virtualizatsiya insoniyatning borliq haqidagi an'anaviy tasavvurlarini qayta formatlovchi ontologik inqilobdir. Chunki, virtual borliq nafaqat texnik makon, balki insonning axloqiy qiyofasi va ma'naviy immuniteti sinovdan o'tadigan yangi ijtimoiy realikka aylandi. Bu jarayonda an'anaviy tarbiya usullari o'rnini “raqamli etika” va axborot madaniyati egallamoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida virtual va real dunyo chegaralarining xiralashuvi ularning qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir o'tkazmoqda.

Axborot oqimlari orqali kirib kelayotgan yot g'oyalar va simulyativ ma'naviyat (yuzaki qadriyatlar) shaxsning ichki “men”ini parchalab yubormasligi lozim. Shu bois, hozirgi bosqichda tarbiya — faqatgina bilim berish emas, cheksiz axborot okeanida ma'naviy filtr va milliy o'zlikni saqlab qolish qobiliyatini shakllantirish demakdir.

**Natijalar va muhokama.** Virtual makonda axloqiy mas’uliyatni his etish — bu bugungi kunning eng oliy ma’naviy zarurati hisoblanadi.

Birinchi, ijtimoiy munosabatlarning tarmoqlashuvi natijasida an’anaviy vertikal (iyerarxik) munosabatlar o’rnini gorizontalar tarmoqli aloqalar egallamoqda. Garchi bu jarayon jamiyatda demokratlashuv illyuziyasini yaratsa-da, tahlillar shuni ko’rsatadiki, u aslida M. Fuko ta’riflagan “panopticon” [4]ning yangi — “raqamli panopticon”[5] shaklini yuzaga keltirmoqda. Bu tizimda nazorat ochiq majburlash orqali emas, balki shaxsning har bir raqamli izini algoritmik kuzatish orqali amalga oshiriladi. Panoptikonda odamlar kuzatilishdan qo’rqqan bo’lsa, raqamli panoptikonda ular ma’lumotlarini (selfilar, lokatsiyalar) ixtiyoriy ravishda topshirmoqda.

Bu jarayon quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- shaxsiy hayot daxlsizligining yo’qolishi;
- ijtimoiy tarmoqlarda sun’iy obraz yaratish;
- tashqi bahoga qaramlik.

N. Jo’rayevning fikricha, “axborot texnologiyalarining rivoji inson faoliyatini kengaytirish bilan birga, unda yangi turdagi bog’liqlik va qaramlik shakllarini ham yuzaga keltirmoqda” [6].

Ikkinchi, virtualizatsiya jarayoni chuqur identivlik inqirozini keltirib chiqarmoqda. Virtual makon inson ijtimoiy qiyofasining fragmentatsiyalashuviga, ya’ni yaxlitlikning yo’qolishiga olib keladi. J. Bodriyar kontseptsiyasiga tayansak [7], ijtimoiy munosabatlar tobora “simulyakr” xarakterini kasb etmoqda. Bu esa insonlar o’rtasidagi real muloqotning emotsional chuqurligini shunchaki texnologik interaktivlik (layklar, qisqa xabarlar) bilan almashtirib, ma’naviy-axloqiy aloqalarni yuzakilashtiradi. Bu tushuncha orqali zamonaviy madaniyatning sun’iylashuvi izohlanadi.

Natijada inson o’zining haqiqiy “meni”ni yo’qotadi, virtual obraz real shaxsdan ustun bo’ladi, muloqot yuzakilashtiriladi. S. Shermuhamedov inson o’zligini saqlab qolishi uchun mustahkam ma’naviy asos va ichki tayanchga ega bo’lishi zarur [8] deb ta’kidlaydi.

Uchinchi, jamiyatda raqamli kognitivizm hukmronligi o’rnatilmoqda. Endilikda ijtimoiy munosabatlar insoniy iroda bilan emas, balki algoritmik tartibga solinishi oqibatida yangi turdagi stratifikatsiya — “axborotga ega bo’lganlar” va “axborotdan uzilganlar” tabaqalanishi yuzaga kelmoqda. Bu esa ijtimoiy adolat va ma’naviy tenglik tamoyillariga yangicha tahdid soladi.

U. To’raevning fikricha, axborot tengsizligi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir [9]. Bunday sharoitda ma’naviy tarbiya tizimi an’anaviy yondashuvlardan chiqib, shaxsni murakkab raqamli muhitda mustaqil va ongli faoliyat yuritishga tayyorlashga qaratilishi zarur. Chunki axborot oqimlarining keskin ortishi, sun’iy intellekt va algoritmik boshqaruv tizimlarining kengayishi inson ongiga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda. Shu bois ma’naviy tarbiya quyidagi ustuvor yo’nalishlar asosida rivojlantirilishi lozim.

Birinchi, mustaqil fikrlashni rivojlantirish ma’naviy tarbiyaning asosiy mezoniga aylanishi kerak. Zamonaviy axborot makonida shaxs turli qarama-qarshi g’oyalar, manipulyativ kontent va ideologik ta’sirlar bilan to’qnash keladi. Bunday vaziyatda inson tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni tanqidiy tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllanishi zarur. Mustaqil fikrlash shaxsning ichki erkinligini ta’minlab, uni tashqi axborot bosimidan himoya

qiladi. Shu ma'noda, tanqidiy tafakkur — bu shaxsning axborotni saralash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. A. Erkaev ham bu borada shunday ta'kidlaydi: “erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash demokratik jamiyatning eng muhim shartidir” [3]. Demak, mustaqil fikrlash nafaqat intellektual, balki ma'naviy mustaqillikni ham ta'minlaydi.

Ikkinchidan, algoritmik manipulyatsiyalarga qarshi immunitet hosil qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga mos kontentni taqdim etadi. Bu esa insonning qaror qabul qilish jarayoniga sezilmas tarzda ta'sir ko'rsatadi. Natijada shaxs o'zini erkin deb hisoblagan holda, aslida algoritmlar tomonidan boshqarilayotgan bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, “raqamli davrda hokimiyat ochiq majburlash orqali emas, balki ongni boshqarish orqali amalga oshiriladi” [5]. Bu fikr algoritmik nazoratning yashirin, ammo kuchli ta'sirini ifodalaydi. N.Jo'rayev ham bu muammoni alohida qayd etib, “axborot texnologiyalari inson tafakkuriga ta'sir etish orqali uni bilvosita boshqarish vositasiga aylanmoqda” [6], deya ta'kidlaydi. Shunday ekan, ma'naviy tarbiya jarayonida shaxsda axborotga nisbatan hushyorlik, tanqidiy munosabat va ichki nazorat mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish zamonaviy tarbiyaning ajralmas qismidir. Axborotning haddan tashqari ko'pligi sharoitida uning sifati, ishonchliligi va ma'naviy ta'sirini baholay olish muhim ko'nikmaga aylanmoqda. Axborot iste'moli madaniyati — bu nafaqat kerakli ma'lumotni tanlash, balki zararli, yolg'on yoki manipulyativ axborotlardan o'zini himoya qila olish qobiliyatidir. Shu nuqtai nazardan, axborot madaniyati insonning umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, uning ma'naviy yetukligini belgilaydi. E. Yusupov axborot bilan ishlash madaniyati shakllanmagan jamiyatda ma'naviy inqiroz xavfi kuchayadi deb ta'kidlaydi [2]. Demak, axborot iste'moli madaniyati shaxsning nafaqat bilim darajasini, balki uning axloqiy pozitsiyasini ham belgilaydi.

Umuman olganda, zamonaviy ma'naviy tarbiya tizimi insonni passiv axborot iste'molchisi emas, balki ongli va mas'uliyatli subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bu esa mustaqil fikrlash, algoritmik ta'sirlarga qarshi immunitet va axborot madaniyatining uyg'un rivoji orqali amalga oshiriladi. Faqat shundagina shaxs raqamli jamiyat sharoitida o'zligini saqlab qolgan holda faol va barqaror hayot kechira oladi.

**Xulosa.** Axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar va axborot oqimlarining keskin ortishi insonlar o'rtasidagi aloqalarning mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy ijtimoiy munosabatlar o'rnini tobora ko'proq virtual muloqot, raqamli hamkorlik va global kommunikatsiya egallab bormoqda. Natijada ijtimoiy makon kengayib, vaqt va hudud chegaralari nisbatan yo'qolib, yangi ijtimoiy identiklik va kommunikativ madaniyat shakllanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, axborotlashgan jamiyat ijtimoiy munosabatlarning yanada tezkor, ochiq va ko'p qatlamli bo'lishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon insonning ijtimoiy faolligi, bilimga bo'lgan ehtiyoji va axborotni qabul qilish uslublarini ham o'zgartirmoqda. Biroq ushbu transformatsiya faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmay, balki raqamli tengsizlik, axborot xavfsizligi, ijtimoiy izolyatsiya va manipulyatsiya kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Falsafiy nuqtai nazardan, ijtimoiy munosabatlarning bunday o'zgarishi inson va jamiyat o'rtasidagi dialektik aloqalarning yangi bosqichga o'tganini anglatadi. Ya'ni texnologik

taraqqiyot va inson omili o'zaro ta'sirda bo'lib, bir-birini rivojlantiruvchi va ba'zan qarama-qarshi yo'nalishlarda harakat qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar texnologik determinizm ta'sirida o'zining inson markazli (antropotsentrik) xususiyatini yo'qotib bormoqda. Falsafiy jihatdan bu jarayon insonning o'zligidan begonalashuvini kuchaytiradi. Shu bois, kelajakdagi barqarorlik ijtimoiy munosabatlarni raqamli texnologiyalar asoratidan qutqarib, ularga yana "jonli eksistensial" mazmun berishga, ya'ni texnologiyani emas, balki inson qadrini birlamchi o'ringa qaytarishga bog'liqdir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Castells M. The Rise of the Network Society. 2 nd Edition. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. - P. 500-509.
2. Yusupov E. Ijtimoiy falsafa. - Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2012. - B. 112-bet.
3. Erkayev A. Ma'naviyat falsafasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 23, 47
4. Foucault M. Discipline and Punish: The Birth of the Prison. - New York: Vintage Books, 1995. - P. 195-228.
5. Han Byung-Chul. The Psychopolitics: Neoliberalism and New Technologies of Power. - London: Verso, 2017. - P. 35-52.
6. Jo'rayev N. Globalashuv va axborotlashgan jamiyat muammolari. -Toshkent: "Fan", 2013. B. 98
7. Baudrillard J. Simulacra and Simulation. Translated by Sheila Faria Glaser. - Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. - P. 1- 42.
8. Shermuhamedov S. Inson falsafasi. -Toshkent: "Fan", 2010. - 64-bet.
9. To'rayev U. Globalizatsiya va axborotlashgan jamiyat. - Toshkent: "Fan", 2015. – B. 76.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).